



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No3
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, aprel.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeveva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BUXGALTERIYA VA EKOLOGIK HISOBOT (ESG HISOBOTLARI).....	21
Abdulkarimov Qamariddin Isroiljon o'g'li, Abdurashidov Faxriddin Fazliddin o'g'li, Beknazarov Zafarjon Ergachevich	
YASHIL INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH – BARQAROR IQTISODIY O'SISHNING ASOSIY YO'NALISHI	26
Yarboeva Farida Ulug'bek qizi, Yoqubova Zilola To'ra qizi	
RAQAMLI SOLIQ NAZORATINING BUXGALTERIYA TIZIMIGA TA'SIRI	30
Abdulxatov Mirkomil O'rol o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	34
Насиров Дилшод Фархадович, Халманова Шахзода, Кенесбаева Азиза	
O'ZBEKISTON TURIZM TIZIMIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	39
Normurodov X.E., Abdurazakova Farangis Dilshod qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ШКОЛЫ НАУКИ УПРАВЛЕНИЯ И ИХ ОСНОВНЫЕ ИДЕИ.....	44
Латипов Ашур Али Рустам ўғли, Джамолова Хилола Исмаиллаевна	
O'ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA MOSLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	50
Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich	
MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTALARI VA GLOBAL PUL TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	57
Jumanova Shaxlo Boxodir qizi, Shovkatov Nodirjon Ne'matjon o'g'li	
RAQOBAT VA MONOPOLIYA SHAROITIDA BOZOR SAMARADORLIGI HAMDA IQTISODIY RIVOJLANISH OMILLARI	62
Yo'ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o'g'li, Yoqubova Zilola Tura qizi	
ИНВЕСТИЦИИ В ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ЭКОНОМИКИ	68
Насиров Дилшод Фархадович, Тохинова Азиза Олимжоновна, Исокулова Хуснора алохиддиновна	
FRANCHAYZING FAOLIYATIDA RAQAMLI MARKETING VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	74
Xodjayev Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li	
AGROINDUSTRIAL BIOMASSANING IKKILAMCHI UTILIZATSIYASI – YOPIQ SIKL IQTISODIY MODELINING INFRATUZILMAVIY TAYANCHI: IQTISODIY-EKOLOGIK MEZONLAR VA MILLIY AMALIYOT.....	80
Kadirova Maraljon Matyakubovna, Eshbekov Murodjon Uktamovich	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI.....	87
Alimov Umid Xamid o'g'li, Rustamov Maqsud Suvonqulovich	
RAQOBATLASHMAGAN BOZOR SHAROITIDA NARX BELGILASH TAMOYILLARI.....	92
G'aniyev Fayzbek Abduxamid o'g'li, Jumanazarov Og'abek Ahmadjon o'g'li, Shukurov Tohirjon Izzatullo o'g'li	



RAQOBATLASHMAGAN BOZOR SHAROITIDA NARX BELGILASH TAMOYILLARI

G'aniyev Fayzbek Abduxamid o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
"Iqtisodiyot" fakulteti talabasi

Jumanazarov Og'abek Ahmadjon o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
"Iqtisodiyot" fakulteti talabasi

Shukurov Tohirjon Izzatullo o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
"Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqobatlashmagan bozor sharoitida narx belgilash tamoyillari, bozor hokimiyati va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi monopol va oligopol bozorlarda narx shakllanishining xususiyatlarini aniqlash hamda O'zbekiston sharoitida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Metodologiya sifatida iqtisodiy tahlil, taqqoslash, tizimli yondashuv va statistik sharhlash usullaridan foydalanildi. Natijalar narx elastikligi, differensial narxlash va monopol hokimiyatning foydani maksimallashtirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishini namoyon etadi. Maqola ilmiy va amaliy jihatdan antimonopol siyosatni yanada takomillashtirish uchun muhim xulosalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: raqobatlashmagan bozor, monopoliya, oligopoliya, monopolistik raqobat, monopsoniya, narx belgilash, bozor hokimiyati, narx elastikligi, antimonopol siyosat, davlat tartibga solishi.

Abstract: This article examines pricing principles in imperfectly competitive markets and the interaction between market power and state regulation. The study aims to identify the characteristics of price formation in monopoly and oligopoly structures and to develop practical recommendations for Uzbekistan. The methodology includes economic analysis, comparative approach, systems thinking, and statistical interpretation. The findings demonstrate that price elasticity, price discrimination, and monopoly power significantly influence profit maximization. The paper provides both theoretical insights and practical implications for improving antitrust policy.

Key words: imperfect competition, monopoly, oligopoly, monopolistic competition, monopsony, pricing, market power, price elasticity, antitrust policy, state regulation.

Аннотация: В статье анализируются принципы ценообразования в условиях несовершенной конкуренции, а также взаимосвязь рыночной власти и государственного регулирования. Цель исследования — выявить особенности формирования цен в монопольных и олигопольных структурах и разработать практические рекомендации для Узбекистана. В качестве методологической основы использованы экономический анализ, сравнительный подход, системный анализ и статистическая интерпретация. Результаты показывают, что ценовая эластичность, ценовая дискриминация и монопольная власть оказывают существенное влияние на максимизацию прибыли. Работа имеет научную и прикладную значимость для совершенствования антимонопольной политики.

Ключевые слова: несовершенная конкуренция, монополия, олигополия, монополистическая конкуренция, монопсония, ценообразование, рыночная власть, ценовая эластичность, антимонопольная политика, государственное регулирование.

KIRISH

Raqobatlashmagan bozorlar zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki ko'plab tarmoqlarda mukammal raqobat emas, balki bozor hokimiyati ustun bo'lgan tuzilmalar faoliyat yuritadi. Bozor hokimiyati narxlarning shakllanishi, ishlab chiqarish hajmi hamda resurslarning taqsimlanishiga bevosita



ta'sir ko'rsatadi. Jahon banki va OECD ma'lumotlariga ko'ra, raqobat siyosati bozorlarni yanada samarali, moslashuvchan va innovatsion rivojlantirishning muhim vositasi sifatida qaraladi [8, 10].

Monopol va oligopol bozorlarda narx mexanizmi oddiy talab va taklif kesishmasi orqali to'liq izohlanmaydi; bu sharoitda firma narxni qisman yoki to'liq nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli narx belgilash jarayonida ishlab chiqarish xarajatlari, talab elastikligi, raqobatchilar xatti-harakati, bozor segmentatsiyasi hamda uzoq muddatli strategik maqsadlar muhim ahamiyat kasb etadi [3, 4, 11].

Davlatning narx siyosatidagi roli, ayniqsa, tabiiy monopoliya, ijtimoiy ahamiyatga ega tovarlar va infratuzilma xizmatlari bozorlarida muhim hisoblanadi. Xalqaro tajribada bu yo'nalishda samarali institutsional mexanizmlar shakllangan. Jumladan, AQShda Federal Trade Commission (FTC), Buyuk Britaniyada Competition and Markets Authority (CMA), Germaniyada Bundeskartellamt, Yaponiyada Japan Fair Trade Commission (JFTC) hamda Xitoyda antimonopoliya qonunchiligi bozor muvozanatini ta'minlashga xizmat qiladi [12-16].

O'zbekiston iqtisodiyotida ham raqobat muhitini yaxshilash, ustun mavqeni suiiste'mol qilishning oldini olish, iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish va narxlarning shaffofligini oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. 2023-yil 3-iyulda qabul qilingan "Raqobat to'g'risida"gi Qonun hamda 2024-yilda qabul qilingan tegishli huquqiy hujjatlar ushbu yo'nalishda institutsional asoslarni mustahkamladi [17-19].

Tadqiqotning maqsadi — raqobatlashmagan bozor sharoitida narx belgilash tamoyillarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, shuningdek, xalqaro tajriba asosida O'zbekiston uchun takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida monopol, oligopol va monopolistik raqobat bozorlari doirasida narx shakllanishi jarayoni tanlangan bo'lsa, tadqiqot predmeti mazkur bozorlarda narx siyosatini belgilovchi iqtisodiy, institutsional va strategik omillardan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlar tahlili iqtisodiy nazariyaning klassik va zamonaviy yo'nalishlari izchil rivojlanganini ko'rsatadi. Adam Smith bozor muvozanati va "ko'rinmas qo'l" konsepsiyasi orqali erkin raqobatning ijobiy natijalarini asoslab bergan [1]. Alfred Marshall esa narxni talab va taklif kesishgan nuqta sifatida talqin qilib, chegaraviy tahlil yondashuvini rivojlantirgan [2].

Joan Robinson nomukammal raqobat nazariyasini ishlab chiqib, monopol hokimiyat sharoitida firma narxni ma'lum darajada boshqarishi va natijada ijtimoiy yo'qotishlar yuzaga kelishini asoslab bergan [3]. Paul Samuelson va William Nordhaus iqtisodiyot darsliklarida bozor samaradorligi, narx signallari hamda davlat aralashuvining asosiy funksiyalarini tizimlashtirgan [4].

Michael Porter strategik raqobat nazariyasida firmalar bozorda ustunlikka faqat ishlab chiqarish xarajatlari orqali emas, balki differensiallash, pozitsiyalash va raqobat ustunliklari orqali erishishini ta'kidlaydi [5]. Mazkur yondashuv narx belgilashni oddiy hisob-kitob jarayoni emas, balki strategik boshqaruvning muhim elementi sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

International Monetary Fund tadqiqotlariga ko'ra, korporativ bozor hokimiyatining kuchayishi ayrim tarmoqlarda iqtisodiy dinamikani susaytirishi va foyda marjalarining oshishiga olib kelishi mumkin [6-7]. World Bank va OECD hisobotlarida esa raqobat siyosati nafaqat antimonopol choralar, balki institutsional muhitni yaxshilash vositasi sifatida baholanadi [8-11].

O'zbekiston bo'yicha amaliy asos sifatida O'zbekiston Respublikasining 03.07.2023-yildagi "Raqobat to'g'risida"gi O'RQ-850-sonli Qonun¹, 2024-yildagi tegishli o'zgartishlar hamda Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi faoliyati tahlil qilindi [17-19].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda iqtisodiy tahlil, statistik sharhlash, taqqoslash usuli, tizimli yondashuv hamda SWOT tahlil qo'llanildi. Iqtisodiy tahlil narx va foyda marjasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga xizmat qildi; taqqoslash usuli xalqaro tajribani o'rganish imkonini berdi; SWOT tahlil esa O'zbekiston bozorlarining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda ehtimoliy xavflarini aniqlashga yordam berdi. Mazkur metodlar tanlovi raqobatlashmagan bozorlarning murakkab va ko'p omilli tizim ekanligi bilan izohlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqobatlashmagan bozor — bu sotuvchilar yoki xaridorlar soni cheklangan, mahsulot differensiallashgan yoki bozorga kirish to'siqlari yuqori bo'lgan bozor tuzilmasidir. Bunday bozorda narx faqat marjinal xarajatlardan iborat emas, balki bozor hokimiyati, talab elastikligi va firmalarning strategik xatti-harakati bilan ham belgilanadi [3, 6, 10].

¹ <https://lex.uz/docs/-6518381>



Raqobatlashmagan bozorlarning asosiy shakllari monopoliya, oligopoliya, monopolistik raqobat va monopsoniya hisoblanadi. Monopoliyada yagona sotuvchi, oligopoliyada bir nechta yirik firma, monopsoniyada esa yagona yoki ustun mavqega ega xaridor mavjud bo'ladi. Monopolistik raqobatda esa ko'plab firmalar differensial mahsulotlar bilan faoliyat yuritib, narxni qisman nazorat qilish imkoniyatiga ega [4, 11].

Mazkur bozorlarda kirish to'siqlari, patentlar, tarmoq effektlari, yuqori boshlang'ich kapital sarfi yoki tabiiy monopoliya xususiyati narx shakllanishini klassik raqobat mexanizmidan farqlaydi. [8, 12, 14].

Narx shakllanishi umumiy holda talab va taklif muvozanatiga asoslangan bo'lsa-da, monopol va oligopol sharoitda firma pasayuvchi talab egri chizig'iga duch keladi va narxni tanlash orqali foydani maksimal darajaga yetkazishga intiladi [3, 6].

Monopol sharoitda narx odatda marjinal daromad marjinal xarajatga tenglashadigan nuqtada aniqlanadi:

$$MR = MC$$

Mazkur nuqta foydani maksimal qiluvchi ishlab chiqarish hajmini belgilaydi, undan keyin esa firma talab egri chizig'i asosida mos narxni tanlaydi [3-4].

Narx diskriminatsiyasi uch darajada namoyon bo'ladi:

- birinchi darajada — har bir iste'molchiga individual narx qo'llanadi;
- ikkinchi darajada — xarid hajmiga qarab narx farqlanadi;
- uchinchi darajada — iste'molchi segmentlari bo'yicha turli narxlar belgilanadi.

Narx elastikligi raqobatlashmagan bozorlarda muhim ahamiyat kasb etadi: talab noelastik bo'lsa, firma yuqoriroq narx belgilashi mumkin; aksincha, elastik talab sharoitida narx oshishi savdo hajmining keskin qisqarishiga olib keladi [2, 4, 6].

Xarajatlarga asoslangan narx belgilash usuli mahsulot tannarxi, doimiy xarajatlar va ustama foyda asosida narxni aniqlashni nazarda tutadi.[4].

Talabga asoslangan narx belgilashda esa iste'molchining to'lashga tayyor bo'lgan qiymati asosiy mezon sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv differensial mahsulotlar, kuchli brend va yuqori xizmat sifati mavjud bo'lgan segmentlarda samarali hisoblanadi [5, 11].

Raqobatchilarga asoslangan narx siyosati bozordagi yetakchi yoki asosiy raqobatchilar narxini yo'naltiruvchi omil sifatida qabul qiladi. Bu yondashuv ayniqsa oligopol bozorlarda keng tarqalgan bo'lib, narx urushlari xavfini kamaytiradi, biroq innovatsion raqobatni cheklashi mumkin [3, 6].

Strategik va psixologik narx belgilashda narx nafaqat iqtisodiy hisob-kitob, balki iste'molchi idroki, bozor signallari va brend pozitsiyasi elementi sifatida qaraladi. Masalan, 99 bilan tugaydigan narxlar ayrim segmentlarda talabni rag'batlantiruvchi omil bo'lishi mumkin [5].

Monopol narx strategiyasida firma kirish to'siqlari va bozor hokimiyatidan foydalanib, uzoq muddatli foyda va bozor ulushi o'rtasida muvozanatni ta'minlashga intiladi. Shu bilan birga, davlat nazorati yetarli bo'lmagan sharoitda farovonlik yo'qotishlari ortib borishi mumkin [6, 8, 12].

Kartel kelishuvlari narxlarni yashirin yoki ochiq tarzda muvofiqlashtirishga asoslanadi. Bunday amaliyot odatda raqobatga zid hisoblanib, iste'molchilar uchun yuqori narxlar va cheklangan tanlov imkoniyatlarini yuzaga keltiradi [12, 14, 16].

Yetakchi firma modeli bozorning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, unda bitta yetakchi firma narx yo'nalishini belgilaydi, qolgan firmalar esa ushbu narxga moslashadi. Bunday holat qator sanoat tarmoqlarida kuzatiladi va narx barqarorligini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin [3, 11].

Narx urushi qisqa muddatda iste'molchilar foydasini oshirishi mumkin, biroq uzoq muddatda firmalar foyda marjalarining qisqarishi natijasida investitsiya hajmini kamaytirishi hamda bozorga kirish to'siqlarini kuchaytirishi ehtimoli mavjud [6-7].

Demping tashqi bozorlarda raqobatchilarni siqib chiqarish yoki bozor ulushini oshirish maqsadida mahsulotni xarajatga yaqin yoki undan past narxda taklif etishni anglatadi. Ushbu amaliyot ko'pincha xalqaro savdo va raqobat siyosati nuqtai nazaridan bahsli hisoblanadi [10, 12].

Bozor segmentatsiyasi va uzoq muddatli narx siyosati firmalarga turli iste'molchi guruhlariga moslashtirilgan qiymat taklif qilish imkonini beradi. Biroq ushbu mexanizm shaffoflik, adolat va sog'lom raqobat tamoyillari bilan uyg'unlashgan holda qo'llanishi lozim [5, 11].

Davlatning asosiy vazifasi bozor mexanizmini to'liq almashtirish emas, balki uning samarali va muvozanatli ishlashini ta'minlashdan iborat. Shu nuqtai nazardan antimonopol siyosat, qo'shilishlar (merger) ustidan nazorat hamda ustun mavqeni suiiste'mol qilishga qarshi choralar muhim ahamiyatga ega [12-16].

Narxlarni tartibga solish, odatda, tabiiy monopoliya, kommunal xizmatlar, energetika hamda ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar bozorida qo'llanadi. Bu choralar iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish va inflyatsion bosimni yumshatishga xizmat qiladi [8, 17-18].

Soliq va subsidiyalar orqali davlat narx signallarini bilvosita o'zgartiradi: soliqlar ayrim mahsulotlar narxining oshishiga olib kelsa, subsidiyalar narxni pasaytirishga xizmat qiladi. Bunda fiskal barqarorlikni ta'minlash hamda yordamning manzilliligini oshirish o'rtasida muvozanatni saqlash muhim hisoblanadi [4, 8].



Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqobat siyosati yagona model asosida emas, balki har bir mamlakatning institutsional tizimi, bozor tuzilmasi va iqtisodiy rivojlanish darajasiga mos ravishda shakllanadi. Masalan, AQShda Federal Trade Commission (FTC) antimonopol qonunchilikni qat'iy amalga oshirib, iste'molchilar manfaatlarini va innovatsion muhitni himoya qiladi [12-13]. Buyuk Britaniyada Competition and Markets Authority (CMA) korxonalar birlashuvlarini nazorat qiladi, kartellarga qarshi choralar ko'radi hamda iste'molchilar huquqlarini himoya qiladi [13].

Germaniyada Bundeskartellamt mustaqil federal organ sifatida faoliyat yuritib, dominant mavqe, kartellar va birlashmalar ustidan nazoratni amalga oshiradi [14]. Yaponiyada Japan Fair Trade Commission (JFTC) raqobat siyosatini faol qo'llab-quvvatlab, iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlarga mos ravishda qonunchilik ijrosini ta'minlaydi [15]. Xitoyda esa Anti-monopoly Law bozor raqobatini rivojlantirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va iste'molchilar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan [16].

Mazkur mamlakatlar tajribasining umumiy jihati shundaki, ular narxlarni to'g'ridan-to'g'ri cheklashga emas, balki bozorda ustun mavqega ega subyektlarning xatti-harakatlarini muvozanatlashtirish, shaffoflikni oshirish hamda yangi ishtirokchilar uchun qulay sharoit yaratish orqali samaradorlikni ta'minlaydi [8, 10-11]. OECDning 2024-yilgi tahlillarida esa raqamli bozorlarda bozor kuchining yangi shakllari paydo bo'layotgani va shu sababli ex ante hamda ex post tartibga solish vositalarini uyg'unlashtirish zarurligi qayd etilgan [11].

O'zbekistonda raqobatlashmagan bozorlar asosan tabiiy monopoliya, energetika, infratuzilma, ayrim xizmat ko'rsatish segmentlari hamda yuqori konsentratsiyalashgan sanoat tarmoqlarida kuzatiladi. 2023-yilda qabul qilingan yangi "Raqobat to'g'risida"gi Qonun raqobatni cheklovchi omillarni kamaytirish, ustun mavqeni suiiste'mol qilishning oldini olish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan [17].

Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi bozor muhitini tizimli tahlil qilish, huquqbuzarliklarni aniqlash hamda iste'molchilar murojaatlarini ko'rib chiqish orqali muhim institutsional rol o'ynaydi [19]. 2024-yilda kiritilgan o'zgartishlar esa jarimalar tizimi va tartibga solish mexanizmlarini yanada aniqlashtirib, ularning samaradorligini oshirdi [18].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqobatlashmagan bozorlarda narx belgilash jarayoni oddiy xarajatlar asosidagi yondashuv bilan cheklanmaydi, balki bozor hokimiyati, talab elastikligi, firmalarning strategik xatti-harakati hamda davlat tomonidan tartibga solish omillari bilan belgilanadi. Monopol va oligopol tuzilmalar narxni nisbatan yuqori darajada ushlab turishga moyil bo'lib, bu esa iste'molchilar farovonligi hamda umumiy iqtisodiy samaradorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi [3, 6, 8].

O'zbekiston sharoitida yangi "Raqobat to'g'risida"gi qonunchilik bazasi va vakolatli organlar faoliyati raqobat muhitini yaxshilash uchun mustahkam institutsional asos yaratdi. Biroq amaliy samaradorlik darajasi, avvalo, narxlar shaffofligini ta'minlash, tarmoqlar kesimida tizimli monitoringni kuchaytirish hamda huquqni qo'llash amaliyotining izchilligiga bog'liq bo'lib qolmoqda [17-19].

Mazkur xulosalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Monopol va oligopol segmentlarda narx monitoringining zamonaviy raqamli tizimini joriy etish;
2. Ustun mavqe va bozor ulushi bo'yicha ochiq statistik axborot bazasini kengaytirish;
3. Tabiiy monopoliyalarda xarajatlar va tariflar yuzasidan mustaqil audit amaliyotini kuchaytirish;
4. Kartellarga qarshi choralarni tezkor va shaffof qo'llash mexanizmlarini takomillashtirish;
5. Iste'molchilar murojaatlarini ko'rib chiqishning raqamli (onlayn) platformalarini rivojlantirish;
6. Kichik va o'rta biznes subyektlari uchun bozorga kirish to'siqlarini kamaytirish;
7. Narx diskriminatsiyasi qo'llaniladigan tarmoqlarda adolat va shaffoflik mezonlarini aniqlashtirish;
8. Davlat subsidiyalarini aniq maqsadli va vaqtinchalik iqtisodiy instrument sifatida qo'llash;
9. Raqobat siyosati yo'nalishida ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirish;
10. Xalqaro tajribani inobatga olgan holda ex ante va ex post nazorat mexanizmlarini uyg'unlashtirish.

Raqobatlashmagan bozorlarda narx shakllanishini samarali tartibga solish bozor muvozanatini ta'minlash, iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish hamda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashning muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 03.07.2023-yildagi "Raqobat to'g'risida"gi O'RQ-850-sonli Qonuni, <https://lex.uz/uz/docs/-6518381>
2. Lex.uz. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga kiritilgan o'zgartishlar. — 2024.
3. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. — London, 1776.
4. Marshall A. Principles of Economics. — London, 1890.
5. Robinson J. The Economics of Imperfect Competition. — London, 1933.
6. Samuelson P. A., Nordhaus W. D. Economics. 19th ed. — New York: McGraw-Hill, 2010.



7. Porter M. E. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. — New York: Free Press, 1980.
8. International Monetary Fund. Rising Corporate Market Power: Emerging Policy Issues. — Washington, DC, 2021.
9. International Monetary Fund. Market Power in the Middle East. Working Paper WP/25/1. — Washington, DC, 2025.
10. World Bank. Markets and Competition Policy. — Washington, DC, 2025.
11. World Bank. Competition. — Washington, DC, 2025.
12. OECD. Competition. — Paris, 2025.
13. OECD. Competition Policy in Digital Markets. — Paris, 2024.
14. Federal Trade Commission. The Antitrust Laws. — Washington, DC, 2025.
15. Competition and Markets Authority. About Us. — London, 2025.
16. Bundeskartellamt. The Bundeskartellamt Protects Free and Fair Competition in Germany. — Bonn, 2025.
17. Japan Fair Trade Commission. About and Competition Policy. — Tokyo, 2026.
18. State Council of the People's Republic of China. Anti-Monopoly Law of the People's Republic of China. — Beijing, 2021.
19. Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi. Rasmiy veb-sayt. — 2026.
20. OECD. The Evolving Concept of Market Power in the Digital Economy. — Paris, 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

3-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
